

**FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: G'ARB FALSAFASI**

**Mustafaqulov Abduqahhor**

Tel: +998919097722

[abduqahormustafaqulov@gmail.com](mailto:abduqahormustafaqulov@gmail.com)

**Nomozov Fayzali**

Tel: +998938808135

[fayzalinomozov813500@gamil.com](mailto:fayzalinomozov813500@gamil.com)

**Normurodov Bekjon**

Tel: +998973442205

[normurodovbekjon@188gmail.com](mailto:normurodovbekjon@188gmail.com)

Denov tadbirkorlik pedagogika instituti talabalari

**Annotatsiya:** Biz ushbu maqolada falsafiy tafakkur, taraqqiyot bosqichlari va G'arb falsafasi haqida qisqacha ma'lumotlar bilan tanishdik.

**Kalit so'zlar:** Xristianlik, gnostiklar, xudo, ruh, feodalizm,

G'arb falsafasi miloddan avvalgi VII-VI asrlar chegarasida shahar-davlatlar («Polislar»)da avval Kichik Osiyoning G'arbiy qirg'og'ida (Ioniyada)so'ngra – Sitsiliya orolining yunonlar yashaydigan shaharlarida va nihoyat, Yunonistonda – Afinada (miloddan avvalgi V asr) vujudga kelgan va qadimgi dunyo madaniyati ravnaq to'ishi uchun shartsharoitlar yaratgan sinfiyquldorlik jamiyatining vujudga kelishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan. Hozirgi adabiyotlarda falsafaning vujudga kelishini marksizmning sinfiylik tamoyillariga asoslanib, quldorlik tuzumining shakllanishi bilan bog'lab, uning tarixini uch ming yil deb hisoblanadi. Fikrimizcha, qadimgi asotirlardayoq falsafiy fikrlashlar, olam va undagi hodisalarga aql ko'zi va tajriba mezoni bilan qarash unsurlari mavjuddir. Shu bilan birga falsafa tarixining rivojlanish bosqichlarini ijtimoiy taraqqiyotning u yoki bu davrlari bilan bog'lab tushuntirish xam o'zini oqlamaydi. Chunki bu davrlar turli mintaqalarda o'ziga xos tarzda kechgan. Masalan, qadimgi Gretsiya va qadimgi Rumoda qulchilik iqtisodiy ishlab chiqarish usulini asosini tashkil qilib, bu davlatlarning rivojlanishida quldorlik davrini tashkil qilgan.

Qadimgi Yunon falsafasi eramizdan oldingi 6 asrda Gretsiyada ibtidoiy – jamoa tuzumi quldorlik jamiyati bilan almashgan davrda vujudga keldi. Quldorlik vujudga kelishi bilan antagonistik sinflar, davlat paydo bo'ldi, huquq, san'at va adabiyot shakllandi, savdo-sotiq kuchaydi, shuningdek fizika, matematika, astronomiya, geografiya rivojlandi, bular falsafa fanining rivojlanishiga zamin yaratdi.

Qadimgi Yunoniston dastlabki faylasuflari yer, quyosh, yulduzlar, hayvonlar va odamning kelib chiqishini bir butun yaxlit tasavvur etishga harakat qilgan mutafakkir edilar. Shuning uchun ham ularni fiziklar – tabiatshunoslar (yunoncha physie – tabiat) deb ataganlar. Ular mifologik va diniy dunyoqarashga qarshi kurash olib bordilar. Ma'lumki yunon mifologiyasida asosiy e'tibor, dunyoning kelib chiqishini izohlab berishga

qaratilgan bo'lib, unda asosiy o'rinni dunyoni kim yaratgan degan savol egallab kelgan yunon faylasuflari esa asosiy e'tiborni dunyo nimadan yaratilgan degan savolga javob berishga qaratilgan.

Xristianlik va falsafiy ta'limotining vujudga kelishi. G'arbiy Yevropada O'rta asr tushunchasi I-asrdan XV asrgacha davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda xristianlik shakllanib, davlat dini va mafkurasiga aylandi hamda falsafiy fikrlar yakkaxudochilik g'oyalari asosida rivojlana boshladi. Bu davr falsafasida ikki xil jarayonni ko'rish mumkin: 1. Xristianlikning shakllanib davlat dini va mafkurasiga aylanishi. 2. O'rta asrlarga kelib inkvizitsiyaning ustuvor yo'nalishga aylanishi. Gnostika, apologetika, patristika, realizm, nominalizm va boshqa oqimlar o'sha davr falsafasining qiyofasini belgilaydi. Gnostiklar. Bu davr falsafasida o'z o'rniga ega bo'lgan gnostitsizm eramizning 150-yillarida o'zining yuksak ravnaqiga erishadi. Ular shunday falsafiy ta'limot yaratdilar, ularning fikricha Xudo ruh sifatida yovuzlikda mutlaqo sof, inson esa o'z tabiatining ruhiy jihati bilan Xudoga moslashgan. Bu masalada gnostitsizm faylasuflari xristianlikni yunon falsafasi bilan birlashtirishga harakat qildilar. Agar bu urinishda gnostitsizm g'alaba qilsa, xristianlik qadimgi dunyoning navbatdagi falsafiy dini bo'lib qolar edi va shunday bo'ldi ham. 354-yilda Pompey sobori xristianlikni Rim imperiyasining asosiy dini deb e'lon qildi. Dualizm - gnostitsizmning asosiy yo'nalishi, bu oqim tarafdorlari moddiy va ruhiy dunyo o'rtasida mustahkam chegara mavjud deb ta'kidladilar. Ular ta'limotida materiya hamma vaqt yovuzlik timsolidir. Bundan ular Xudo hech mahal moddiy dunyoni yaratishi mumkin emas, deb hisobladilar.

Ilk o'rta asr G'arb falsafasi. Feodalizm sxolastik falsafasida X-XIV asrlar davomida 2 asosiy oqim - nominalizm va realizm o'rtasida keskin kurash davom etdi. Bu 2 oqim o'rtasidagi kurashning asosiy masalasi umumiy tushunchalar mohiyati masalasi edi. Realistlar umumiy «universallar» - real narsalardan oldin va ulardan tashqarida xudo tarzida yoki xudo ongidagi g'oya tarzida yashadilar, deb hisobladilar. Bu kurash Aflotunning umumiy tushunchalargina realdir, sezgilarimizda ifodalangan ayrim buyumlar esa shu g'oyalarning ko'rinishlaridan iborat degan fikrga mos keladi. Nomenalistlar esa, aksincha ayrim buyumlarning borligini e'tirof qilib, «universalialarni» inkor etadilar. Umumiy g'oyalar faqat odamning fikridagina mavjud bo'lib, umumiy tushunchalar sifatida yashadilar deb isbotladilar.

G'arb Uyg'onish davri va falsafiy tafakkurning rivojlanish xususiyatlari. XV asr oxiri va XVI asr boshlarida G'arbiy Yevropa mamlakatlarida feodalizm emirilib, kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari shakllana boshladi. Yangi geografik yo'llarning ochilishi ishlab chiqarishni yanada rivojlantirdi. Bu esa mashina texnikasini rivojlantirishga olib keldi. Ma'naviy hayotda bu davr tabiatni o'rganishning kuchayishi, cherkov, din ta'siriga qarshi kurashning avj olishi, falsafa va boshqa gumanitar fanlarining ravnaqi bilan tavsiflanadi. Bu davrni odatda Renessans - Uyg'onish davri deb ataydilar. Uyg'onish davridan boshlab fan g'oyat tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Tabiatni ilohiyatdan xoli qilish ana shu vaqtdan boshlandi. Yer va osmon jismlari mexanikasi, shu bilan birga unga xizmat matematik usullarni kashf etish va takomillashtirish sohasida buyuk ishlar qilindi. Bu davrda N. Kopernik, J. Bruno, I. Kepler, G. Galiley singari mutafakkirlar maydonga keladi. Yangi va eng yangi davr falsafasining ustuvor yo'nalishlari. XVII-XVIII asrlar G'arbiy Yevropa taraqqiyotida yangi davr hisoblanadi. Bu asrlar Yevropa mamlakatlarida feodalizmning xalokati va kapitalizmning g'alabasi davri edi. Kapitalistik ishlab chiqarish usuli yangi ishlab chiqaruvchi kuchlar ehtiyojiga muvofiq tabiatni ilmiy bilish jarayonini tezlashtiradi. Dengizda savdo munosabatlarini rivoji kemasozlikning taraqqiyoti, yangi

shaharlar qurilishi astronomiyaga, matematika va mexanikaga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirdi. N. Kopernik geliotsentrik nazariyasining ta'siri tobora kuchaya bordi. Kepler sayyoralar harakat qonunini ochdi.

O'rta asrlar Evropasida Uyg'onish davri va falsafiy tafakkurning rivojlanish xususiyatlari. Ba'zida "Uyg'onish davri" atamasi keng ma'noda uzoq muddat davom etgan ma'naviy va ijodiy turg'unlikning o'rniga keluvchi tez, intensiv madaniy rivojlanish ma'nosida tushuniladi. VIII-IX asrlardagi Karolinglar Renessansi, Evropada shaharlar taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda ro'y bergan XII asr Renessansi, shuningdek, gruzin, eron, arman, arab, hind, xitoy Renessansi haqida so'z borganda atama ayni keng ma'nosida qo'llaniladi deyish mumkin. Tor ma'noda esa XIV asrda SHimoliy Italiyada boshlanib, XVI asrda G'arbiy Evropaning kattagina qismiga yoyilgan hamda Antik madaniyat ideallari va qadriyatlarining qayta "uyg'onishi", qayta qadr topishi bilan tavsiflanuvchi davr tushuniladi. "Uyg'onish davri" atamasi xuddi "O'rta asrlar" kategoriyasi singari nafaqat xronologik, balki ma'naviy mazmunga ham ega. Mazkur davrni "O'rta asrlar" dan ham, "Yangi davr" dan ham ajratib turadigan aniq chegarani belgilash imkonini beruvchi uning o'ziga xos jihati ko'proq ma'naviy hayot sohasida namoyon bo'ladi. Agar ushbu o'ziga xoslik ko'zdan qochirilsa, "Uyg'onish davri" ni yo "O'rta asrlar", yo "Yangi davr" ning qismi sifatida olib qarash yoki bo'lmasa, ularning o'zaro almashinuv paytidagi nomustaqil davr o'laroq baholashga to'g'ri keladi.

**Xulosa:**

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki falsafa fanining asosi G'arb faylasuflari tomonidan tashkil etilgan maktablarda vujudga kelganini hisobga oladigan bo'lsak, falsafa fanida G'arb falsafasi o'zgacha o'rin egallaydi. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari falsafada inson tafakkuri va uning rivojlanishini belgilab beruvchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shuni takidlab o'tishimiz kerakki falsafa borliq haqidagi fan bo'lib unda inson falsafasidan iborat falsafa fanining uzoq yo'lini yoritib beraoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar va internet saytlari:**

1. Pulatova D., Qodirov M., Ahmedova M. va boshq. Falsafa tarixi: Sharq falsafasi. O'quv qo'llanma. –T.: TDSHI.2013.
2. Tulenov J., Tulenova G., Tulenova K. Falsafa. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2016.
3. Xayitov SH., Xayitova K., Ziyautdinova X. Falsafa asoslari. Albom sxema. - T.: Alisher
3. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.
4. G. Tulenova, D. Sagdullayeva. Falsafa (O'quv qo'llanma). - T.: "Aloqachi", 2019.

**Internet saytlari:**

1. www. Ziyo net.uz
2. www.faylasuf.uz